QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.007

AHMAD YASSAVIY VA UNING IZDOSHLARI IJODIDA ISHQ VA OSHIQLIK TALQINI

Islombek Mannopov
filologiya fanlari doktori,
Farg‘ona davlat universiteti
prof.mannopovislombek@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5349-5078

Annotatsiya. Maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilohiy ishq va oshiq obrazining badiiy talqini hamda ushbu an’ananing Sulaymon Boqirg‘oniy, Ubaydiy va Azim xo‘ja ijodida davom etishi qiyosiy o‘rganiladi. Ishqning ruhiy poklanish, nafs tarbiyasi, ma’rifat va zikr bilan bog‘liqligi she’riy parchalar asosida yoritiladi. “Oshiq”, “muhib”, “habib” va “hubb” birliklarining ifodaviy imkoniyatlari hamda izdoshlarga xos poetik o‘ziga xoslik masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yassaviy, Devoni hikmat, Sulaymon Boqirg‘oniy, Ubaydiy, Azim xo‘ja, ilohiy ishq, oshiq obrazi, irfon, zikr, adabiy an’ana.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЮБВИ И ВЛЮБЛЁННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АХМАДА ЯСАВИ И ЕГО ПОСЛЕДОВАТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье в сравнительно-литературном аспекте рассматриваются художественная интерпретация божественной любви и образ влюблённого в хикматах Ахмада Ясави, а также продолжение этой традиции в творчестве Сулеймана Бакыргани, Убайди и Азим-хаджи. На материале поэтических фрагментов раскрывается связь любви с духовным очищением, воспитанием нафса, познанием и зикром. Анализируются выразительные возможности единиц «ашик», «мухиб», «хабиб» и «хубб», а также особенности поэтики последователей Ясави.

Ключевые слова: Ахмад Ясави, «Дивани хикмат», Сулейман Бакыргани, Убайди, Азим-хаджи, божественная любовь, образ влюблённого, ирфан, зикр, литературная традиция.

INTERPRETATION OF LOVE AND LOVERS IN THE WORKS OF AHMAD YASAWI AND HIS FOLLOWERS

Abstract. The article offers a comparative study of the artistic interpretation of divine love and the lover figure in the hikmats attributed to Ahmad Yasawi, as well as the continuation of this tradition in the poetry of Sulayman Baqirgani, Ubaydi, and Azim Khoja. Drawing on

poetic excerpts, it examines the relationship between love, spiritual purification, the discipline of the nafs, mystical knowledge, and dhikr. It also analyses the expressive potential of the terms “oshiq,” “muhib,” “habib,” and “hubb,” alongside the distinctive poetic features of Yasawi’s followers.

Keywords: Ahmad Yasawi, Devoni Hikmat, Sulayman Baqirgani, Ubaydi, Azim Khoja, divine love, the lover figure, irfan, dhikr, literary tradition.

KIRISH

Yassaviylik she’riyatida ishq tasavvufiy tushunchagina emas, balki lirik kechinma, axloqiy talab va badiiy tasvirni birlashtiruvchi yetakchi mavzudir. Hikmatlarda oshiqning ichki kechinmasi, Haq bilan munosabati va ruhiy kamolot sari intilishi xokisorlik, fidoiylik, sabr, zikr hamda ma’rifat bilan bog‘liq holda yoritiladi. Bu an’ananing keyingi ijodkorlar she’riyatida davom etishini aniqlash uchun mavzudagi yaqinlik bilan ifoda usullaridagi o‘ziga xoslikni birgalikda tekshirish zarur.

Tadqiqotning maqsadi Ahmad Yassaviyga nisbat berilgan hikmatlar, Sulaymon Boqirg‘oniy, Ubaydiy va Azim xo‘ja she’riy namunalarini qiyosiy o‘rganish orqali ishq va oshiqlik talqinidagi mushtaraklik hamda o‘ziga xoslik hodisasibi ko‘rsatishdir. Tahlilda baytlarning obrazlar tizimi, takror, tazod, lirik murojaat va so‘z tanlash xususiyatlariga e’tibor qaratildi. Maqolaning ilmiy yangiligi ishq mavzusini faqat tasavvufiy g‘oya sifatida emas, balki izdoshlarda turlicha badiiy ifodalanadigan poetik an’ana sifatida talqin etishga intilishidadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

«Devoni hikmat»ning mavzu va g‘oyaviy mundarijasi juda keng. Unda ishq va oshiqlik, haqiqiy ishqning eng nozik qirralariga munosabat bildiriladi. Oshiqlik oshiqning ixtiyoridan tashqari voqelik bo‘lib, Haq tomonidan belgilangan qismatdir. Alisher Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat» asarida bunga ishora mavjuddir: «Ma’ruf (Karxiy)dan muhabbat haqida so‘rashganda, aytdi: Muhabbat xalq o‘rgatadigan narsa emas, balki u Haqning in’omi va fazlidir». [1;37] «Devoni hikmat»da ifodalangan ishq va oshiqlik ham ilohiy nasiba mevasidir:

Ishq bobini Mavlom ochqoch manga tegdi,
Tufroq sifat hozir bo‘l deb bo‘ynum egdi. [2;21]

Tasavvufiy manbalarda ishq-muhabbatni bir necha xil tasnif qiladilar. Bulardan biri majoziy, ikkinchisi esa xos ma’nodagi ishqdir. Majoziy ishq deganda Yaratgan buyurgan ezgu amallarni so‘zsiz bajarish tushunilgan. Bu Ollohning bandasiga ato etgan yaxshilik va ne’matlariga shukrona sifatida paydo bo‘lgan. Oddiy ishq bandaning sa’yi-harakati, g‘ayrati evaziga qo‘lga kiritilishi mumkin. Xos ma’nodagisi esa ruhning Ollohni yaqinroq tanishi tufayli paydo bo‘lgan zotiy ishqdir. Bu ishqda oshiq o‘zligidan kechish holatida bo‘ladi. Olloh ishq haroratini suygan bandasining ko‘ngliga soladi. «Devoni hikmat»da ana shu xos ishq borasida so‘z boradi:

Nogahoni tururimda qamug‘ buzurg,
Haq ishqini ko‘nglum ichra soldi, do‘stlar.

Yoki:

Ishq podshoh, oshiq faqir dam urolmas,

Haqdin ruxsat olmaguncha dam urolmas. (D.H. 8)

Oshiqning ishq yo‘lida jondan kechishi (fano holiga erishishi) «Devoni hikmat»dagi yetakchi g‘oyalardandir:

Ishq gavhari tubsiz daryo ichra pinhon,

Jondin kechib gavhar olg‘on bo‘ldi jonon. (D.H. 24)

Shuningdek, «Devoni hikmat»da haqiqiy oshiq dinu diyonatda va tariqatda sobitqadam, «nafsini taloq qo‘ygan», «dunyoni tepgan» himmatli, mard, ilohiy ma’rifatdan xabardor orif sifatida talqin qilinadi.

NATIJALAR

Yassaviy izdoshlarining o‘z pirlariga ergashib yozgan hikmatlarida ham ishq yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Sulaymon Boqirg‘oniy ishq mavzusidagi pirining qarashlarini mantiqan davom ettiradi. Dunyoning jozibali va ming turdagi tovlanishlaridan ruhning omon qolmog‘i dushvordir. Bundan faqatgina ishqning ilohiy quvvati bilangina qutulish mumkin. SHuningdek, ishq insonni to‘g‘ri yo‘l – jannatga yetaklovchi yo‘lboshchi hamdir:

Bu dunyodan kim kechgay, aroda ishq bo‘lmasa,

Uchmox qapug‘in kim ochgay, aroda ishq bo‘lmasa. [3;10a] (B.K. 10a)

«Devoni hikmat»da «oshiq bo‘lsang, jondin kechib bir yo‘la o‘l», deyiladi. Bu o‘rinda nafsoniy o‘lish (foniylik) deganda, Haqda tirilib, tajalliy maqomini egallash, ruhiy komillik sari yuksalish nazarda tutiladi. Ishq nafsoniy hayotni o‘ldirib, ruhoniy hayotni ato etadigan qudratga egadir:

Dunyoni tark qilibon, izzu johni solibon,

Kim tirilgay o‘lubon, aroda ishq bo‘lmasa.

«Tazkiratul-avliyo»da keltirilgan Robiyat ul-Adaviyaning javobi juda ibratlidir:

–Haqni sevarmisan?

– Bali.

– SHaytonni dushman tutarmisan?

– Nechun?

– SHuning uchunki, ko‘nglimda Rahmon sevgisi shunchalik to‘lib turgayki, shayton dushmanligi sig‘mas. [4;150]

Ishq maskan tutgan ko‘ngilda kibr, nafrat, g‘iybat singari fasodlarga o‘rin qolmaydi:

Dori-darmon bo‘linmas, o‘zi o‘tdin yulinmas,

Fasod ishdin arilmas, aroda ishq bo‘lmasa.

«Devoni hikmat»da «zohid bo‘lma, obid bo‘lma, oshiq bo‘lg‘il» degan fikr bildirilgan. Bu yerda zohidlik va obidlik qoralanayotgandek ko‘rinsa-da, aslida unday emas. Robiyatul-Adaviyaning munojotida oshiqning ruhiy olami va oliy maqsadlari yana ham ravshanroq bayon qilingan: «Ilohi! Agar men do‘zaxdan qo‘rqib Senga topinsam, meni do‘zaxga tashla! Agar jannat umidi bilan topinsam, jannatni menga harom qil!... Agar Sening O‘zing uchungina topinsam, menga diydoringni nasibi ro‘z ayla!». [4;150] Oshiq Haq diydori uchun amal qiladi. Boshqa niyat bilan qilingan amallarda tama, riyo, kibr singari illatlar bo‘lishi muqarrar. Ming

yil toat-ibodat qilinsa ham, Haqqa yetishish, uni bilish imkonsizdir. Buning yagona chorasi ishqdir:

Ming yil ibodat qilsang, toat ichinda qolsang,
Maholdur Haqni bilsang, aroda ishq bo‘lmasa.

Hadisi qudsiyda: «Ey Rasulim, sen bo‘lmasang edi, olamlarni yaratmagan bo‘lardim» [5;164b], deyilgan. Inson va borliqning yaratilishi, mavjudligining asosi muhabbatdir:

Odam kelmagay erdi, mursal tug‘mag‘ay erdi,
Rahmat inmagay erdi, aroda ishq bo‘lmasa.

«Devoni hikmat»da nodonlar g‘ofil va rahmsiz, nafsparast toifa sifatida qoralanadi:

Nodonlarni mandin so‘rmang, ko‘ksum chaqa,
Haqdin qo‘rqub motam tutsam kular qah-qa.
Og‘zi ochuq, nafsi ulug‘ misli laqqa,
Nodonlardin qo‘rqub sango keldim mano.

Ishq juda ko‘plab muammolarni hal etadi. Oshiqlik – ogohlik, ishqsizlik esa, aksincha, manqurtlikning manbai. Ishqdan bexabarlik nodonlikning ilk belgisidir:

Nodonlarning nishoni, bilmaslar ishq nash’ani,
Qurulmas din do‘koni, aroda ishq bo‘lmasa.

Ishq ko‘ngil ko‘zini ochadi, oshiqning azaliy va abadiy orzusi bo‘lgan Haqqa qovushtiradi:

Ishq ochar ich ko‘zingni, Hakim angla so‘zingni,
Tekurmassan o‘zungni, orada ishq bo‘lmasa.

Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z hikmatlarida jaholat, nodonlik va barcha qabohatlarning sababi ishqsizlik, insonni saodatga, maqsadga yetkazuvchi ilohiy quvvat ishqdir degan g‘oyani ilgari suradi.

Haqiqiy oshiqning hech ikkilanmay jondan kechishi «Devoni hikmat»dagi yetakchi g‘oyalardan biri hisoblanadi:

Man yigirma sakkiz yoshda oshiq bo‘ldum,
Jondin kechib, mehnat tortib sodiq bo‘ldum. (D.H. 4)

Yoki:

Qul Xoja Ahmad nosih bo‘lsang o‘zingga bo‘l,
Oshiq bo‘lsang, jondin kechib bir yo‘la o‘l. (D.H. 9)

Yassaviy izdoshlaridan Ubaydiyning o‘z hikmatlarida ushbu g‘oyani davom ettirgani, bu mavzuda ulug‘ pirga ergashgani «Devoni hikmat» ruhi va uslubida ham ijod etganini bildiradi:

Ey do‘stlar, jondin kechib ishq etokin tuttum mano,
Vahdat mayin ichkuncha ne xunoblar yuttum mano. [6;247v]

Yoki:

Chun oshiq o‘ldum anga chin ko‘ngul ila, ey do‘st,
Kechib yo‘lda boshdin, ham tarki jon qilurmen. [6; 355v]

«Devoni hikmat»ni bir jihati ila «oshiqnoma» ham deyish mumkin. CHunki unda toliblarga oshiqning holati, bu oliy maslakning talablari, unga loyiq bo‘lishga doir tavsiyalar mavjud. Oshiq «tufroq sifat» xokisor bo‘lishi, piriga xizmat qilishi, «lashkar tuzib, shayton

bilan urushishi», «Majnun sifat xaloyiqdan qochishi», «yuz ming turluk jafo tegsa», sabr qilishi, «ma’rifat dengiziga sho‘ng‘ib, duru gavhar terishi», «nafsdan kechib qanoatni pesha qilishi», «ko‘zi giryon, bag‘ri biryon, dardli bo‘lishi», Haqqa muhabbat chin dildan va samimiy bo‘lishi, oshiq ahlini doimo e’zozlashi kerakligi va boshqa tavsiyalar chin oshiq tilidan samimiy bayon qilingan.

MUHOKAMA

Ubaydiy ham Yassaviyga ergashgan holda oshiqning holatiga doir o‘z qarashlarini bayon qiladi. Bunda Yassaviy satrlaridan ta’sirlangani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kimki ishq o‘tida kuysa, mosivodan kechsa, chin oshiq deyish mumkin:

Ishq o‘tig‘a kimki kuysa, oshiqi sodiq bo‘lur,

Mosivoni kim qo‘ysa, oshiqi sodiq bo‘lur.

«Devoni hikmat»da oshiq qullar har qanday jafo tegsa, buni Haqdan deb bilishlari, rozi va sabrli bo‘lishlari uqtiriladi:

Oshiq qullar zor ingrabon yo‘lg‘a kirsa,

Harna jafo tegsa ani Haqdin bilsa,

Rozi bo‘lub yer ostig‘a sobir bo‘lsa,

Zor ingrabon saharlarda qo‘par, do‘stlar. (D.H.25)

Oshiq boshiga «yuz ming balo tushsa» ham «ingra»masligi kerak. Bu uning haqiqatan ham oshiq ekanligidan darak beradi. Ubaydiy Yassaviyga hamohang qarashlarini davom ettiradi:

Kim qochmasa jazodin, ham toymasa balodin,

Rozi bo‘lsa Xudodin, oshiqi sodiq bo‘lur.

Ishqning yuksak darajasi visol shiddatidan paydo bo‘lgan shavq holidir. Buning uchun hayrat maqomini egallash zarur. Hayrat maqomining kaliti esa Haq tajalliysining tafakkuri erur. Tafakkurning manbai esa ilm va irfondir. SHuning uchun «Devoni hikmat»da oshiqning Haq ilmidan xabardor bo‘lgan olim va orif bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi.

Shu bilan birga, oshiq Haq yodidan bir dam g‘ofil bo‘lmagan, hushyor zokir sifatida ham talqin qilinadi. Ubaydiy ham oshiqning orif va zokir bo‘lishi lozimligini o‘z hikmatlarida alohida ta’kidlaydi:

Ma’rifatga kim kirsa, irfon durin kim tersa,

Jon zikrin ayta bersa, haqiqiy oshiq bo‘lur. [6;293v]

«Devoni hikmat»dagi oshiq Haqqa ibodatni muqaddas deb bilgan obid, «nafsiga o‘lim sharbatini tutgan» sodiqdir. Ubaydiyning quyidagi ta’rifi ham Yassaviyning fikrlari bilan hamohangdir:

Haqqa obid kim bo‘lsa, shavqi bilan kim to‘lsa,

Haq ishqinda kim o‘lsa, oshiqi sodiq bo‘lur.

Oshiqning asl maqsadi dunyo ham, oxirat ham emas, u faqatgina visol uchun harakat qiladi. Ikki jahondan kechish deganda ana shu nazarda tutiladi:

Qul Ubaydiy, kim jondin, kechsa ikki jahondin,

Ko‘z tutmasa lutf ondin, oshiqi sodiq bo‘lur. (K.293v)

Ishq va oshiqlik talqinida Ubaydiy ijodida ba’zi farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Uning o‘z hikmatlarida tez-tez «Devoni hikmat»dagi oshiq so‘ziga muqobil «muhib» va “habib” kabi so‘zlar qo‘llagani va ishtiqoq san’atidan foydalanganini ko‘rish mumkin:

Bilingkim, odam emastur muhib ahli aro,
Aning muhabbatidin ko‘ngli to‘lmag‘on odam.(K.352v)

Yoki:

Ishqingda, ey habibim, kelgan balo o‘qig‘a,
Muhiblardek o‘zimni anga nishon qilurmen. (K.355v)

Ishq yo‘lida har qanday baloga tayyor ekanligi haqida bildirilayotgan fikrda oshiq so‘zi o‘rnida muhib qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

Xuddi shu hodisani Azim xoja ijodida ham ko‘ramiz. U o‘zining ko‘p hikmatlarida ishq so‘ziga muqobil «hubb»ni qo‘llagan:

Suhbat ichra tusholi, maydek qaynab tosholi,
Hubb o‘tiga pisholi, xush aytoluk «AllohHuv» (A.X. 38b)

Ishq o‘tida yonib, pishib, Olloh zikrini aytish kerakligi haqidagi fikrda ko‘rinib turganidek «hubb» so‘zi qo‘llangan.

Ishqsiz zikr va zikrsiz ishq bo‘lmaydi. Bu mavzular «Devoni hikmat»da ham bir-biriga bog‘liq holda talqin qilinadi:

«Fazkurulloh kasiyron» [7;10] deb oyat keldi,
Zikrin aytib, zorin qilib yurdum mano.
Diydorini oshiqlarga va’da qildi,
Ishq yo‘lida jonim berib yurdum mano. (D.H.15)

XULOSA

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq Haqqa yaqinlashish, nafsni yengish va ma’rifatga intilishning asosiy sharti sifatida talqin etiladi. Oshiq obrazi xokisorlik, sabr, sadoqat va ruhiy ogohlik kabi sifatlar bilan boyitiladi. Ushbu tasvirlarda “tufroq”, “gavhar”, “daryo”, “o‘t” kabi ramzlar mavhum tasavvufiy tushunchalarni badiiy idrok etishga xizmat qiladi.

Sulaymon Boqirg‘oniy Yassaviyga xos ishqiy-irfoniy qarashlarni davom ettirib, takror va tazod vositasida ishqsizlikning ma’naviy oqibatlarini ta’kidlaydi. Ubaydiy hikmatarida oshiqning sadoqat mezonlari, fidoiylik va zikr motivlari yanada keng ifodalanadi, “oshiq”, “muhib”, “habib” birliklari lirik murojaat va ishtiqoq imkoniyatlarini boyitadi. Azim xo‘ja hikmatlarida esa “hubb” so‘zi ishqning ruhiy jo‘shqinligini aks ettiruvchi obrazlar bilan uyg‘unlashadi.

Demak, yassaviylik she’riyatida ishq mavzusining davomiyligi faqat g‘oyaviy mushtaraklikda emas, balki timsollar, takrorlar, murojaat shakllari va so‘z tanlashdagi badiiy izchillikda ham ko‘rinadi. Shu bilan birga, Boqirg‘oniyda radif tusidagi takrorning umumlashtiruvchi vazifasi, Ubaydiyda “oshiq–muhib–habib” atrofidagi ifoda imkoniyatlari, Azim xo‘jada “hubb o‘ti” tasvirining faolligi har bir ijodkorning alohida ijodiy uslubi borligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро нашриёти,. 2000 й.

2. Яссавий А. Девони ҳикмат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1992. – Б. 21.

3. Boqirg‘on kitobi. O‘zR FASHI: Toshbosma, inv. №288. – 10 v.

4. Аттор Ф. Тазкиратул авлиё. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 1997. – Б. 150.

5. Ажлуний. Кашфул хафа. 2ж, 164б (2123- ҳадис).

6. Kulliyoti Ubaydiy. O‘zR FASHI: Qo‘lyozma, inv. №8931. – 247 v., 293 v., 355 v.

7. Qur’oni karim. Juma surasi, 10-oyat.

IZOH

[7] «Фазкуруллоҳ касирон» – «Аллоҳни кўп эсланглар!» (Жумъа сураси, 10-оятга ишора).